

ABDULLA QAHHOR IJODIDA MA'NAVIY QARASHLAR

Qobulova Komila Akyulovna

ADU akademik litseyi

Ona tili va adabiyoti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zabardast yozuvchi Abdulla Qahhorning axloqiy-ta'limiy qarashlari uning ‘Haq so‘zning kuchi’(Maqolalar. Suhbatlar. Qaydlar) asari asosida yoritildi. Bunda adibning jamiyat hayotiga oid muhim masalalar, onalik va bolalikni himoya qilish, paxtachilikning millat ayollari ustidagi zahmati va uning olib kelajak salbiy oqibatlari, millat taraqqiyotida ona tilining ahamiyati, insoniyat uchun zarur bo‘lgan axloqiy sifatlar, maishiy hayotdagi ko‘z ilg‘amaydigan, ayni damda jamiyat inqiroziga sabab bo‘ladigan omillar va ta’lim-tarbiya, hamda adabiy-tanqidiy qarashlariga alohida e’tibor qaratildi.

Kalit so‘zlar: shaxs ma’naviyati, ijtimoiy illatlar, axloqiy-ta’limiy qarashlar, adabiy- tanqidiy fikrlash, publitsistik maqolalar, suhbatlar.

KIRISH

Abdulla Qahhorning axloqiy-ta’limiy qarashlari ostida jamiyatimizning turli mavzulari, muammolari o‘z aksini topgan. Uning ‘Haq so‘zning kuchi’ asariga bir qancha maqolalari jamlangan bo‘lib ular ichida biz mavzu qilib tanlaganimiz masalalarga oid qarashlar alohida o‘rin egallaydi. ‘Paxtakorning har bir yutug‘i qimirlagan jonni quvontiradi’ maqolasida jamiyatning og‘riqli nuqtalari qalamga olingan ulardan biri o‘z davri uchun dolzarb bo‘lgan paxta terish mashinalarining ommaviy paxta dalalariga jalb qilinmasligi, borlari ham paxta sifatiga zarar yetkazatgani, natijada hosilni yig‘ib olishda ayollar va bolalar mehnatidan foydalanilayotgani haqidagi ma’lumotlarning 1960-yilda jaranglagani Abdulla Qahhorning jasorati edi. Shu o‘rinda ‘ayol kishining bo‘ynidagi falon ming kilogramm yukni ‘menga ort’ deb yelkasini tutib turgan mashinaning hammaning ko‘ziga yaxshi ko‘rinmasligi uning sifatsizligini belgilasa, ayol kishining paxtadan ham boshqa tashvishlarining ko‘pligi uning paxta mexnatining tagida ezilib ketayotganligi turli misollar bilan izohlanadi. Ushbu maqolada yozuvchi qo‘rqoqlik, qoloqlik, lanjlik va lanj odamlarning jamiyat taraqqiyotiga yetkazayotgan zararlari xususida ham to‘xtalib o‘tadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Onalar va bolalar muammosi ham birinchilardan bo‘lib Abdulla Qahhor tomonidan tilga olingan edi: ‘Ayol kishining boshida paxtadan ham boshqa tashvish ko‘p: tug‘adi, kechalari uyqusini harom qilib bolaga qaraydi, o‘stiradi... Ba’zi raislar kolxoz yaslisini maqtab, ‘bizning yaslimiz ikkinchi ona’ deyishadi.

To‘g‘ri shunaqa yaslilar ko‘p, lekin har qalay bolagina ‘ikkinchi onaning bag‘ridan ko‘ra birinchi onaning etagida ko‘proq yayraydi. Xotin kishi kir yuvadi, non yopadi, uyga qaraydi, sigir sog‘adi...’ [8. B. 134].

Abdulla Qahhor ‘Oila va muhabbat’ maqolasida oilaning darz ketishiga sabab bo‘shlgan uchta omilni ko‘rsatadi. Ulardan biri orzu havas ortida katta to‘y qilish va yigitning katta qarzga botishi bo‘lsa, ikkinchisi, qaynana-kelin munosabatidagi nomuvofiqlik. Afsuski har ikki illat jamiyatimizda haligacha mavjud. Uchinchisi (yozuvchi buni kamroq uchraydigan deb ko‘rsatadi), ‘mushakday chiroyli, chaqmoqday ko‘zni qamashtiradigan, lekin bir lahzali, o‘tkinchi muhabbatnamo tuyg‘u asosiga qurilganidir’. ‘Muhabbat va oila masalasida xato qo‘yilgan qadam, sudning hukmiday, hech qachon va hech kim tuzatolmaydigan xato bo‘ladi. Sudning yanglish hukmi bilan turmada o‘tgan vaqt, yanglish qurilgan oilada g‘urbat bilan kechgan umr hech qachon qaytmaydi’[6. B. 145] degan fikrlari hukm bo‘lib yangraydi.

Rahbar xodimlarning orasida qo‘l ostidagi odamlarning moddiy ahvolini yuqori tashkilotlardan yashiradigan, bu haqda ularga noto‘g‘ri ma‘lumot beradigan, majlislarda ‘farovon turmush’, ‘madaniy to‘q turmush’ haqida lof uradigan kimsalarni yozuvchi ‘ko‘zbo‘yamachi otlig‘ qabih kimsalar’ deb ataydi. Bunday ko‘zbo‘yamachilar davlat bilan xalqning orasiga parda tortadilar. Bunday ko‘zbo‘yamachilar orasida rajio va televideniye muxbirlari ham borki, ular xo‘jako‘rsinga material tayyorlaydi va namoyish qiladi. Shu tariqa Abdulla Qahhor mutasaddilarni ayovsiz tanqid ostishga oladi.

Abdulla Qahhor bolalar tarbiyasiga alohida e‘tibor berib o‘tgan. U 1946-yilda yozilgan ‘Bolalar adabiyoti to‘g‘risida’ maqolasida: ‘Kattalar uchun yozilgan kitobda yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatish mumkin, lekin bolalar uchun yozilgan kitobda ketgan xatoni tuzatib bo‘lmaydi, bu xatodan bolani ogohlantirilsa, xato uning zehniga chuqurroq o‘rnashadi’ – deb yozar ekan, davomidan – ‘Bolalar uchun kitob yozadigan kishi g‘oyat usta san‘atkor, katta tajribali pedagog, tilning zarshunosi bo‘lmog‘i kerak’[2. B. 80] – deb bolalar ozuvchisi zimmasidagi mas‘uliyat nihoyatda katta ekanligini ta‘kidlaydi. Shuningdek, bolalar adabiyoti darajasining past ekanligi haqida yozuvchi kuyunib gapiradi. Uning bir qancha sabablarini keltiradi. Avvalo bolalar adabiyoti soyuzning (Yozuvchilar uyushmasining), adabiy jamoatchilikning nazaridan chetda ekanligi, ikkinchidan, bolalar uchun yozadigan yozuvchilarning umumiy saviyasi pastligidan bolalar adabiyoti kattalar adabiyoti darajasida o‘smaganligini aytib o‘tadiki, bu qaysidir ma‘noda yozuvchining bashoratiga o‘xshaydi. 1946-yilda aytilgan gaplar hozirgi kun uchun ham ayni muhim masalalar sirasida turibdi. ‘Bolalar yozuvchilarining oldiga qattiq talablar qo‘ymaganimiz uchun ko‘pi ‘kosib’ bo‘lib qolyapti. Bulardan birmunchasi bolalar uchun yozish qanchalik mas‘uliyatli ekanini, bu mas‘uliyatni yelkasiga olgan odam

qanchalik bilimli, qanchalik hunarmand bo‘lishi kerak ekanini yaxshi bilmaydi, tushunmaydi’[2. B. 80], – deb yozar ekan adib bu bolalar adabiyoti vakillari uchun ham yo‘riqnoma ekanligini unutmaslik ayni damda pedagoglar uchun bolaga nimani qanday o‘qitish haqida ham o‘ziga xos saboqdir.

Abdulla Qahhorning ‘Gap aruzda emas’ maqolasida ijodkorning adabiy-nazariy qarashlari bilan bir qatorda axloqiy-ta’limiy qarashlari ham berilgan. Xususan, aruz vaznininiqob qilib ijod qilayotganlar va ularning asarini qo‘shiq qilib sahnaga olib chiqayotgansan’atkorlar adibning tanqidiga duchor bo‘lishadi. Ayniqsa Abdulla Qahhor ‘Bu kungacha aruz vaznida yozilgan she’rlarning juda ko‘pi muhabbat haqida. Lekin bularning hammasi deyarli erkak jonivorning urg‘ochi jonivorni yo‘qlab chiqargan tovushidan farq qilmaydi. Bu she’rlarda insonga xos olijanob tuyg‘udan asar ham topolmaysiz’[3. B. 72], – deb kuyunib yozsa, ayrimaruzda yozilgan she’rlarni bosib bo‘lmasligini, ular ko‘pincha aritist va aktrisalarning repertuarlaridan joy olib omma orasiga kirib borayotganidan xavotirini yashirmaydi. ‘Bu narsalarni bosish ayb ekanini shu xildagi shoirlarning o‘zlari ham bilishadi. Bu narsalarni ko‘pincha zotan, iste’dodi yo‘q, tomoshabinni san’ati bilan qoyil qilolmaydigan artist va aritskalar repertuar qilishadi. Ba’zan o‘zlari zakaz qilishadi, zakaz qilshganda ham ‘qichiqroq bo‘lsin’ deyishadi. Keyin, oilaviy o‘tirishlarda ham aytib bo‘lmaydigan ‘qichiq’ she’rlar sahnaga chiqadi, o‘z qadrini bilmagan, izzat nafsini biron bezorining qiyqirig‘iga alishtiradigan bu sho‘rlik ‘san’atkor’ shoirdan juda mamnun bo‘ladi, uni eng zo‘r shoir deb biladi. Bu xildagi qabih narsalarning – ‘islovot adabiyoti’ning tarqalishiga ba’zan ‘melodist-kompozitor’ deb atalgan xaridorlar ham sabab bo‘ladi’[3. B. 74]. Hozirgi kunda saviyasiz qo‘shiqlar-ku urchib ketgani mayli, behayo filmlarni ham ekranga chiqarayotgan mutasaddilar uchun Abdulla Qahhorday tanqidchi juda zarurga o‘xshaydi. Abdulla Qahhor bunday siyqasi chiqqan so‘zlarga o‘ralgan qofiyali so‘zlarni tahlil qilar ekan, ‘qani haqiqiy muhabbat, olijanob tuyg‘uning tarkibi bo‘lgan o‘zaro mehr-oqibat, har qanday o‘tga bardosh beradigan sadoqat, sof qalb, samimiyat, fidokorlik, tenglik’ deb yozadi. Uning o‘zi ham insoniylikni ana shu mezonlar asosida o‘lchagan. Buni adibning Kibriyo Qahhorova bilan kechgan chorak asrlik hayot yo‘li isbotlaydi.

Abdulla Qahhor shijoatli va jasoratli adib sifatida axloqiy-ta’limiy masalalarda ham o‘ziga xos talablar qo‘ygan munaqqiddir. Uning bir qator maqolalari, nutqlari, ma’ruzalarida mazkur masalaga urg‘u bergani ham adibning jamiyat taqdiriga befarq bo‘lmagan inson ekanligini ko‘rsatadi.

Abdulla Qahhorning axloqiy-ta’limiy qarashlari borasida ham muhim fikrlarni qayd qilibo‘tish zarur.

1. Men ‘mayda’, ‘yirik’ mavzu degan gapni tan olmayman. Nainki, paxta uchun kurash

- ‘yirig’ u bola tarbiyasi yoki oila ‘kichik’ mavzu bo‘lsa!
2. Men o‘z respublikamni sevaman, o‘zbekcha sevaman.
 3. O‘tmish kishining xotirasida tinadi.
 4. Yozuvchi qalbining chuqur joylarigacha ko‘rsatadigan ikki sahifalik chinakam proza biz uchun pala-partish, lekin ustaroq so‘zlar bilan yozilgan ‘silliq’ asardan ko‘p darajada foydaliroqdir.
 5. Ayniqsa, bahor kunlari majlisdan yomoni yo‘q! Ko‘cha-ko‘yga suqlanib qarab o‘tirganingizda bir odam minbarga chiqib, sartaroshning qaychisiday shaqqilayversa... Har qanaqa odamning ham uyquasi keladi!
 6. Nima uchun ko‘cha harakatini buzayotgan kishiga militsiya hushtak chaladi-yu, butun bir tilni buzayotgan odamlarga hech kim hushtak chalmaydi.
 7. O‘z qadrini bilgan kishi xohlamagan ashulasini pul bersangiz ham eshitmaydi.
 8. Klassiklarda ham, xalq adabiyotida ham, hayotda ham odatan yigitlar yaxshi ko‘rgan qizlarini maqtashar edi. ‘Ko‘zing undoq, so‘zing bundoq’ deyishar edi, Hozirgi ko‘p ashulalarda qizlar o‘zlarini o‘zlari maqtashadi: ‘uyog‘im undoq, buyog‘im bundoq’ deyishadi. ‘Ey shoir, axir tashabbus erkakdan bo‘lishi kerak, bulbulning ham erkagi sayraydi-ku!’ – deydigan odam yo‘q!
 9. Yozuvchini hech qachon hech kim ko‘tarmaydi. Yaxshi yozuvchini yaxshi asarlariko‘taradi, yaxshi yozuvchi ko‘tarilib ketganini hatto o‘zi bilmay qoladi.
 10. Bugungi kunda rus tilining ahamiyati to‘g‘risida gapirish oftobning ahamiyatini tushuntirishday bir gap.
 11. Tuyg‘usiz, ilhomsiz yozilgan asar changlanmagan gulga o‘xshaydi – meva tugmaydi.
 12. Ilhomning o‘zi hech qachon kelmaydi. Ilhomni yozuvchining o‘zi qidirib borishi, topishi kerak. Ilhomning makoni xalqning dilida – majburiyat emas, zaruriyat, xohishga aylangan mehnatning shavkati, baxtiyor odamning qahqahasida, jabrdiydaning ko‘z yoshida, oshiq va ma‘shuqlarning ko‘zlari va so‘zlarida, odamda mehr va g‘azab uyg‘otadigan hodisa va voqealarning mag‘zida...
 13. Yozuvchining umri yil bilan o‘lchanmaydi, ijodiy faoliyatining samarasi bilan o‘lchanadi.
 14. Yozuvchining xalqqa aytadigan gapi naqadar muhim, naqadar katta, naqadar zaurur bo‘lsa, buni kitobxon qalbiga olib kiradigan obraz shu qadar kuchli bo‘lishi kerak.
 15. Tanqid yomon asar bilan kitobxon orasida dallol, shirinkomaga vijdonini sotadigan yurkasiz dallol bo‘lmasligi kerak.
 16. Ijodning boshi – yozuvchining muvozanatdan chiqishi, konkrer asar ushning ifodasidir.
 17. Havas hammada ham bo‘lishi mumkin, lekin havasning o‘zi kishini hech

qayoqqa eltmaydi, Men, masalan, tanbur chertib hammani qoyil qilgim keladi, lekin nachoraki, dard bor- u, darmon yo‘q.

18. Bizning sinfdagina emas, butun maktabda xunuk yozish ayb bo‘lib qoldi. Kimdirxunuk xatga ‘Chuvolchang’ deb ot qo‘yibdi. Xunuk xatni ko‘rsak, ‘Bir bet chuvolchang’, ‘Bir daftar chuvolchang’ deb kular edik. Bu gapni eshitib o‘qituvchimiz xo‘p kuldilar, ko‘zlaridan yosh chiqib ketdi. Hali-hali qo‘limga qalam olsam, tepamda Muhammadjon domla ‘chuvolchang’ deb turganga o‘xshaydilar.

XULOSA VA MUNOZARA

Yozuvchi ijodini baholaganda uni o‘tkir dramaturg, mohir hikoyanavis debgina emas, balki jamiyat hayotidagi muammolarni sinchkovlik bilan kuzatadigan, ularning yechimini taqdimqila oladigan munaqqid sifatida ham qaray bilish lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulla Qahhor. Bir xatga javob. Haq so‘zning kuchi. Asarlar. Besh jildlik. Beshinchi jild. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘ati nashriyoti, 1989. –272 b.
2. Abdulla Qahhor. Bolalar adabiyoti to‘g‘risida. Haq so‘zning kuchi. Asarlar. Besh jildlik. Beshinchi jild. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘ati nashriyoti, 1989. –272 b.
3. Abdulla Qahhor. Gap aruzda emas. Haq so‘zning kuchi. Asarlar. Besh jildlik. Beshinchi jild. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘ati nashriyoti, 1989. –272 b.
4. Abdulla Qahhor. Muhabbat va oila. Haq so‘zning kuchi. Asarlar. Besh jildlik. Beshinchi jild. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘ati nashriyoti, 1989.
5. Abdulla Qahhor. Sinchalak, Asarlar. Besh jildlik. Uchinchi jild. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘ati nashriyoti, 1988. –368 b.
6. Abdulla Qahhor. Paxtakorning har bir yutug‘i qimirlagan jonni quvontiradi. Haq so‘zning kuchi. Asarlar. Besh jildlik. Beshinchi jild. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘ati nashriyoti, 1989. –272 b.
7. Abdulla Qahhor. Sinchalak, Asarlar. Besh jildlik. Uchinchi jild. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘ati nashriyoti, 1988. –368 b.
8. Abdulla Qahhor. Paxtakorning har bir yutug‘i qimirlagan jonni quvontiradi. Haq so‘zning kuchi. Asarlar. Besh jildlik. Beshinchi jild. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘ati nashriyoti, 1989. –272 b. Abdulla Qahhor. Har bir mahalla – bir oila. Haq so‘zning kuchi. Asarlar. Besh jildlik. Beshinchi jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘ati nashriyoti, 1989. –272 b.